

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

ISMAILOVA MA’RIFAT BAXRAMBEK QIZI

**INGLIZ TILINI O‘QITISHDA B2 DARAJADAGI TALABALARNING
STRATEGIK KOMPETENSIYASINI MUAMMOLI TEXNOLOGIYA
ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Ismailova Ma‘rifat Baxrambek qizi

Ingliz tilini o‘qitishda B2 darajadagi talabalarning strategik kompetensiyasini muammoli texnologiya asosida takomillashtirish3

Исмаилова Маърифат Бахрамбек кизи

Совершенствование стратегической компетенции студентов уровня B2 на основе проблемной технологии при обучении английскому языку.....27

Ismailova Marifat Bakhrambek kizi

Improving Strategic Competence of B2 Level Students through Problem-based Technology in Teaching English.....53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....57

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

ISMAILOVA MA’RIFAT BAXRAMBEK QIZI

**INGLIZ TILINI O‘QITISHDA B2 DARAJADAGI TALABALARNING
STRATEGIK KOMPETENSIYASINI MUAMMOLI TEXNOLOGIYA
ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.Phd/Ped7453 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va «ZiyoNET» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Axmedova Layloxon Tolibjonovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Isroilova Dildora Muxtorovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Obidova Gulmira Kuzibayevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «15» iyul soat 10.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91. Faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1185 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91. Faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «24» iyun kuni tarqatildi.
(2025-yil «24» iyun dagi 4 raqamli reyestr bayonnomasi).



I.M. Tuxtasinov
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, v.v.b.,
ped.f.d. (DSc), professor

A.B. Raxmonov
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, ped.f.d.
(DSc), dotsent

K.Sh. Muradkasimova
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy
seminar raisi, ped.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda zamonaviy ta'lim jarayonini talaba markaziga yo'naltirgan holda kompetensiyaviy bilimlarni muammoli texnologiya bilan integratsiyalashgan holda o'qitish dolzarb masalalardan biridir. So'nggi yillarda kommunikativ yondashuv, kognitiv strategiyalar va talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan metodikalar xorijiy til o'qitishda keng tatbiq etilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muammoli ta'lim texnologiyalari talabalarning til materialini chuqurroq anglashiga, o'z fikrlarini aniq va mantiqiy ifodalashga, shuningdek, turli vaziyatlarda o'z bilimlarini moslashtira olishiga yordam beradi. Muammoli texnologiya talabalarni mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga undaydi. Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, talabalarning til bilish darajasi nafaqat grammatik va leksik bilimlarni egallashga, balki ularni to'g'ri strategiyalar bilan qo'llashga ham bog'liqdir.

Dunyo miqyosida talabalarning tanqidiy fikrlash, hamkorlik qilish, moslashuvchanlik, hozirjavoblik va kognitiv fikrlashni mujassamlashtiruvchi strategik kompetensiyani takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar tobora ortib bormoqda va uni ta'limga tatbiq etish zaruriyati ta'kidlanib kelinmoqda. Jahonning bir nechta yetakchi universitetlari, jumladan, Standford Universiteti (AQSH), MakGill Universiteti, Konkordiya Universiteti (Kanada), Melburn Universiteti (School of Culture and Communication-Avstraliya), Lyudvig Maksimilian (Germaniya), Kopengagen Universiteti (Daniya) kabilar muloqot, strategiyalar va muammoli ta'lim integratsiyasi orqali ta'lim berish masalalari borasida tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bundan tashqari, Yevropa va Janubiy Amerikada "Millatlararo muloqotda ta'lim, til, o'qitish va strategiyalar" loyihalari, Shvetsariya hukumati tashabbusi bilan tashkil etilgan "Yevropada til o'rganishdagi izchillik va shaffoflik" simpoziumi tillarni samarali o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar, til o'rganuvchi tomonidan muloqot va o'rganish kontekstida talab qilinadigan kompetensiyalar yuzasidan tadqiqotlar olib bormoqda. Shu jihatdan ham talabalarning strategik fikrlashi, kommunikativ strategiyalardan samarali foydalanishi, vaziyatni to'g'ri baholay olishi, muvaffaqiyat qozonishi va madaniyatlararo muloqotga tayyorlashning yaxlit jarayonini qurish zaruriyati hozirgi ta'lim tizimida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Yurtimizda yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida qator chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

Xususan, "O'zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarda xalqaro hamkorlik kengayayotgani xorijiy tillarni

bilishga ehtiyojni oshirmoqda. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish"¹ muhim vazifa qilib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-27-son farmoni, 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son, 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son, 2020-yil 31-dekabrda "Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4939-son, 2021-yil 1-aprelda "Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5047-son, 2021-yil 19-mayda "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son, 2021-yil 30-iyulda "Oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5203-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-mayda "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 312-son qarori, 2022-yil 19-yanvarda "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shma chora-tadbirlari to'g'risida"gi 34-son hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiyaga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini takomillashtirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'qitish masalalari yetuk mutaxassis olimlar G.X.Bakiyeva, L.T.Axmedova, J.J.Jalolov, T.K.Sattarov, D.R.Djumanova, D.U.Xoshimova, N.P.Babaniyazova, A.B.Raxmonovlarning² ishlarida ilmiy-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 6-may kuni chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishidagi nutqi. Elektron resurs: <https://president.uz/oz/lists/view/4327> (Murojat qilingan sana: 22.05.2024)

² Бакиева Г.Х. Узбекский язык для стран СНГ. – Москва: МГЛУ, 2012. – 120 с.; Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов. –Т.: Fan va texnologiya, 2013. – 200 с.; Жалолов Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. – Тошкент, 2012. – 430 б.; Саттаров Т.К. Формирование профессиональных умений будущего учителя иностранного языка на практических занятиях по специальности (на материале английского языка): Автореф.дис...д-ра пед.наук. –Ташкент, 2000. – 32 с.; Палуанова Х.Д. Инглиз, ўзбек, рус ва қорақалпоқ тилларида экологик терминларнинг деривацион-семантик принциплари: Автореф. дисс. ... филол.фан. док. – Тошкент, 2016. – 28 б.; Джуманова Д.Р. Фонологическая

nazariy jihatdan yoritilgan. Ingliz tilini o'qitish metodikasi bo'yicha F.M.Rashidova, I.M.Tuxtasinov, F.Sh.Alimov, M.A.Nazarova, K.Sh.Muradkasimova, X.A.Mamatqulov, M.X.Gulyamova, N.X.Kushiyeva, F.J.Masharipova kabi olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan³.

Strategik kompetensiya tushunchasining mazmuni, uning ta'limdagi o'rni va amaliy ahamiyatiga oid jihatlariga MDH va xorij olimlari Agnieszka Slezak-Svayt, Lusiano Mariana, Ghaleb Rabab'ah, L.A.Kareva, I.Zimnyaya, T.I.Timofeyeva, O.N.Mixaylina⁴ kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida alohida e'tibor qaratilgan.

Strategik kompetensiyaning ingliz tilini o'qitishdagi ahamiyatini aniqlashga doir izlanishlar B.M.Sirigiri, Dwi Oktaviyana, Sukiati Prativi, Murni Mahmud, D.L.Chiyesa, U.Azizov, S.Xan, K.Nazmutdinova, K.Tangirova⁵ ishlarida ko'rib chiqilgan.

Chet tillarini o'qitishda muammoli texnologiyani o'rni G.T.Maxkamova, Sh.S.Alimov, A.I.Ziyayev, N.X.Avliyakov, N.N.Musayeva, I.R.Raximova, Anna Uhl Shamot, I.A.Kim⁶ kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

модель слова в условиях языкового контактирования.: Дис. докт. фил.наук. – Ташкент, 2016. – 266 с.; Хошимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лакунов в контексте современного функционирования русского языка и межкультурных взаимодействий: Дис. ... докт. пед. наук. – Ташкент, 2007. – 209 с. Бабаниязова Н.П. Development of communicative competence in the process of teaching English. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. дисс. ... докт. пед. наук. – 2019. – № 7(12). Рахмонов А.Б. Формирование профессиональной компетенции будущих учителей русского языка в самообразовательной деятельности.: Автореферат.дис. ... докт.пед.наук. – Ташкент, 2022. – 82 с.

³ Рашидова Ф.М. Совершенствование концептуально-методических основ внедрения в систему непрерывного образования Узбекистана (на примере английского языка). Дисс. ... докт.пед.наук. – Т., 2017. – 309 с.; Тухтасинов И.М. Таржимон тайёрлашда касбий компетенцияларни эквивалентлик ҳодисаси асосида ривожлантириш. Автореф. ... кан. пед. наук. – Т., 2018. – 69 б.; Алимов Ф.Ш. Инглиз тилида ёзув компетенциясини шакллантириш (нофилологик факультетлар мисолида) Автореф. ... канд. пед. наук. – Т., 2018. – 44 б.; Назарова М.А. Инглиз тилидаги матнларни ўқишда талабаларни лексик полисемияга ўргатишни такомиллаштириш. Автореф. ... кан. пед. наук. – Т., 2018 – 42 б.; Мурадкасимова К.Ш. Инглиз тилини ўқитишда талабаларнинг кўникма ва малакаларини баҳолаш ҳусусиятлари: дис.канд.пед.наук. – Т., 2019. – 179 б.; Гулямова М.Х. Инглиз тилини ўқитишда талабалар коммуникатив компетенциясини ривожлантиришга интегратив ёндашув: дис.канд.пед.наук. – Т., 2019. – 24 б.; Kushiyeva N.X. Uzluksiz ta'lim tizimida ingliz tilini klasterli yondashuv asosida o'qitish modeli: Avtoreferat.dis....p.f.d. – Т., 2023. – 35 б.; Masharipova F.J. CBI va STEM texnologiyalari asosida bo'lajak biolog o'qituvchilarning o'qitish kompetensiyasini takomillashtirish: avtoreferat.dis.... – Urganch, 2023. – 45 б.

⁴ Agnieszka Ś. Components of strategic competence in advanced foreign language users, dissertation paper, Silesia, 2008. – 295 p.; Luciano M. Communication strategies, learning and teaching how to manage oral interaction. 2010. – 134 p.; Ghaleb R. Strategic competence and ELT syllabus. Grazer Linguistische Studien 60 (Herbst 2003). – P. 77-90.; Л.А.Карева. Использование стратегической компетенции в процессе обучения устному общению в аспекте диалога культур. дис.канд.пед.наук. – Москва, 2000. – 258 с.; Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. – Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 40 с.; Тимофеева Т.И. Формирования стратегической компетенции студентов в коммуникативной деятельности в процессе обучению английскому языку: Монография. – Ульяновск: УлГТУ, 2011. – 136 с.; Михайлина О.Н. Формирование коммуникативных стратегий взаимодействия в подготовке бакалавров неязыкового вуза к межкультурной коммуникации: Дисс. ...канд. пед. наук. – Самара, 2020. – 209 с.

⁵ Sirigiri B.M. Strategic Competence in a Three-Pronged Approach to Communication, International Research Journal of Social Sciences. India, 2015. – P. 70-73.; Dwi Warry O. The importance of strategic competence in supporting student's speaking performance, Indonesia, Journey, 4 (2): 2021. – P. 51-61.; Suciati P., Murni M. Strategic communicative competence of graduate English language education students in classroom interactions, English Education, State University of Makassar, 2018. – P. 1-17.; David L.Ch., Azizov U., Xan S., Nazmutdinova K., Tangirova K. Reconceptualizing language teaching: an in-service teacher education course in Uzbekistan. – Tashkent: Baktaria Press, 2019. – 237 p.

⁶ Makhkamova G.T., Alimov Sh.S., Ziyayev A.I. Innovative pedagogical technologies in the English language teaching. Tashkent: "Fan va texnologiya" Publishing House, 2017. – 232 p.; Avliyakov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Cho'lpon NMIU, 2012. – 208 б.; Raximova

Yurtimizda chet tillarini samarali o'qitishda kommunikativ kompetensiya va muloqot muammolarini o'rganishda olib borilgan ilmiy izlanishlarga qaramasdan, aynan talabalarning strategik kompetensiyasini takomillashtirish ahamiyati ko'rib chiqilmagan. Shu munosabat bilan mazkur tadqiqot ishi ilmiy-tadqiqot qilishga asos bo'ladi deb hisoblaymiz.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Xorijiy tillarni o'qitishning ilg'or texnologiyalari va amaliyotga joriy etish" ilmiy tadqiqot institutining ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ta'lim yo'nalishi xorijiy til va adabiyoti bo'lgan B2 darajadagi talabalarning strategik kompetensiyasini muammoli texnologiya asosida takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ilmiy-metodik adabiyotlarda talabalarning strategik kompetensiyasini takomillashtirish masalalarini o'rganib chiqish, tahlil qilish va og'zaki muloqotda talabalarning strategik kompetensiyasini takomillashtirish xususiyatlarini aniqlash;

B2 darajadagi talabalarning strategik kompetensiyasini takomillashtirishda muammoli texnologiyaning o'rnini tavsiflash va mavzu doirasida davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv dasturlar hamda darsliklarni tahlil qilish;

muloqot jarayonida talabalarning strategik kompetensiyasini takomillashtirishda vujudga keladigan qiyinchiliklarini aniqlash hamda tavsiflash;

amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda muammoli texnologiya asosida talabalarning strategik kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan mashqlar tizimini ishlab chiqish va tizimli modelini takomillashtirish;

pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, o'tkazish va samaradorligini aniqlagan holda tadqiqot natijalari asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida ta'lim yo'nalishi xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) bo'lgan B2 darajadagi ikkinchi bosqich talabalarning strategik kompetensiyani takomillashtirish jarayoni tanlangan.

Tadqiqotning predmetini talabalarning strategik kompetensiyani takomillashtirish mazmuni, vositalari va metodlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy tahlil, diagnostik usullar (so'rov, kuzatish, test); prognostik usullar (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), matematik-statistik tahlil va umumlashtiruvchi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

muloqot jarayonining interaktivlik xususiyati asosida shakllanuvchi kommunikativ strategiyalar tipologiyasi strategik kompetensiyaning ijro (execution) komponentini PBLning Kategoriya → Maqsad → Strategik vosita

I.R. Boshlang'ich sinflar o'qish darslarida muammoli ta'limdan foydalanishning nazariy-amaliy xususiyatlari. – Tashkent, 2020. – 176 b.; Anna U. C. Improving speaking skill through a problem-solving approach, Journal of Language education system, Volume 1, Number 3, 2018. – P. 34-40.; Ким И.А. Problem-solving activities in teaching English. Таразский государственный университет имени М.Х. Дулати, Казахстан, 2011. – 231 p.

blok-sxemasiga funksional joylashtirish natijasida talabaning tezkor reaksiya bildirish ko'nikmalarini rivojlantirish zaruriyatiga ko'ra takomillashtirilgan;

PTPLUR ta'lim jarayonining tayyorlovchi bosqichi muloqotdagi fossilizatsiya (qotib qolish) elementlarini muammoga asoslangan til o'qitishning SSPS modelidagi "situation" komponentiga biriktirish asosida kompensator strategiyalarni ongli qo'llash mezoniga ko'ra takomillashtirilgan;

talabalarining strategik kompetensiyasini takomillashtirishga xizmat qiluvchi STRATEGO ta'lim mexanizmining samaradorligi integral-faoliyat bloklar tarkibini mazmuniy-imitatsion topshiriqlarga integratsiya qilish doirasida semantik-aniqlikka ustunlik berish asosida dalillangan;

xorijiy til va adabiyoti ta'lim yo'nalishi talabalarining strategik kompetensiyasining didaktik ta'minoti zamonaviy PPSI texnologiyasining "strategic interaction" komponentini muloqot texnikasi (axborot, maqsad, ishtirokchilar) ga gorizontal integratsiyasi asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

ingliz tilini o'qitishda B2 darajadagi talabalarining strategik kompetensiyasini muammoli texnologiya asosida takomillashtirishga qaratilgan uch turdagi mashqlar tizimi ishlab chiqildi hamda xorijiy til va adabiyoti ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabalariga joriy etilgan;

ingliz tilini o'qitishda talabalarining strategik kompetensiyasini muammoli texnologiya asosida takomillashtirishning tashkiliy-metodik ta'minoti yaratilgan;

mustaqil ta'limga qaratilgan B2 darajadagi talabalarining strategik kompetensiyasini baholashda topshiriqlar to'plami yaratildi hamda baholash mezonlari ishlab chiqilgan;

muammoli texnologiya asosida talabalarining strategik kompetensiyasini takomillashtirish metodikasining tizimli modeli takomillashtirilgan va samaradorligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan ma'lumotlar, izoh va mulohazalar, metodlar ishonchli manbalardan olinganligi, taklif etilgan texnologiya va yondashuv, keltirilgan tahlillar, xulosa, metodik tavsiya va takliflarning amaliyotga joriy etilganligi, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik usullar vositasida tahlil qilinib, dalillanganligi va olingan natijalar samaradorligi vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz tilini o'qitishda talabalarining strategik kompetensiyasini muammoli texnologiya asosida takomillashtirishning lingvodidaktik asoslari, ta'lim tizimida strategik kompetensiyaning asosiy xususiyatlari, kommunikativ strategiyalarning samarali muloqot qilishdagi ahamiyati, muammoli texnologiyaning B2 darajadagi talabalarining strategik kompetensiyasini takomillashtirishdagi muhim omili o'rganilganligi va ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda tatbiq etish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan mashqlar, metodik taklif va tavsiyalar oliy ta'limning xorijiy til va adabiyoti yo'nalishida tahsil olayotgan B2 darajadagi talabalarining strategik kompetensiyasini

takomillashtirish, o'quv dasturlarini takomillashtirish, darsliklar va o'quv qo'llanmalar yaratish, oliy ta'lim muassasalarida ish yuritish bo'yicha maxsus o'quv kurslarini tashkil qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz tilini o'qitishda talabalarining strategik kompetensiyasini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan nazariy-metodologik va amaliy natijalar asosida:

muloqot jarayonining interaktivlik xususiyati asosida shakllanuvchi kommunikativ strategiyalar tipologiyasi strategik kompetensiyaning ijro (execution) komponentini PBLning Kategoriya → Maqsad → Strategik vosita blok-sxemasiga funksional joylashtirish natijasida talabaning tezkor reaksiya bildirish ko'nikmalarini rivojlantirish zaruriyatiga ko'ra takomillashtiruvchi asoslardan "O'zbekiston talabasi" jurnalining 2024-yil 3-sonidagi "Xorijda tahsil: grant yutib olgunuch va olgach..", 5-sonidagi "Avval test, so'ng tanlov tamoyili qanday ishlaydi?", "Kredit-modul tizimi, talab va taklif", 6-sonidagi ingliz tilidagi "A letter to freshmen from graduated student", 7-sonidagi "Sleep problems in students", "Gates Cambridge scholarship" kabi maqolalarda talabalarining real-hayotiy vaziyatlarda muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bir qancha tavsiyalar keltirilgan ("Integration Center Umid" ma'suliyati cheklangan jamiyat, "O'zbekiston talabasi" jurnali 2024-yil avgust oyidagi №01/33 ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarining real-hayotiy vaziyatlarda muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bir qancha tavsiyalar keltirilgan;

PTPLUR ta'lim jarayonining tayyorlovchi bosqichi muloqotdagi fossilizatsiya (qotib qolish) elementlarini muammoga asoslangan til o'qitishning SSPS modelidagi "situation" komponentiga biriktirish asosida kompensator strategiyalarni ongli qo'llash mezoniga ko'ra takomillashtirilgan natijalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida Yevropa Ittifoqi tomonidan 2022-2025 yillarda "Erasmus+ International KA107 Credit mobility Key action 1-Mobility for learners and staff- Higher education student and staff mobility" mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (Oliy Ta'lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti №04/1-2869, 2024-yil 15-oktabr ma'lumotnomasi). Natijada, taklif va tavsiyalar loyiha mazmunini boyitishga xizmat qilgan;

talabalarining strategik kompetensiyasini takomillashtirishga xizmat qiluvchi STRATEGO ta'lim mexanizmining samaradorligi integral-faoliyat bloklar tarkibini mazmuniy-imitatsion topshiriqlarga integratsiya qilish doirasida semantik-aniqlikka ustunlik berish asosida dalillangan natijalardan Urganch davlat universitetida amalga oshirilgan S-UZ800-20-GR-0038 raqamli "ACCESS MICROSCHOLARSHIP PROGRAM" nomli amaliy loyiha doirasida unumli foydalanilgan (Oliy Ta'lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi, Urganch Davlat Universiteti №06-22/1, 20.11.2024 yil ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida yaratilgan o'quv dasturlarini xorijiy tajribalar asosida ishlab chiqilgan mashqlar tizimi hamda metodik tavsiyalar orqali takomillashtirishga erishilgan;

xorijiy til va adabiyoti ta'lim yo'nalishi talabalari strategik kompetensiyasining didaktik ta'minoti zamonaviy PPSI texnologiyasining

“strategic interaction” komponentini muloqot texnikasi (axborot, maqsad, ishtirokchilar)ga gorizontall integratsiyasi doirasida takomillashtirilgan asoslardan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiyasi texnologiyalari va aloqa harbiy institutida bajarilgan HHM Radiotexnika qo‘shinlari o‘quv terminologik lug‘ati “Erudit” shifrlı maqsadli innovatsion loyihani bajarishda keng foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining 2024-yil, 18-martdagi № 10/559-son ma’lumotnomasi). Natijada, sohaga oid terminlar ma’nosining izohlari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatısiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 147 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari aniqlangan, metodlari tavsiflangan, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprobatısiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“B2 darajadagi talabalarning strategik kompetensiyasini muammoli texnologiya asosida takomillashtirish muammosini o‘rganishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobining ilk faslida asosiy e’tibor mavzuni birlamchi manbalar asosida ilmiy yoritishga yo‘naltirilgan. Mazkur faslda xorijiy, MDH va mahalliy olimlarning (Kanal, Sveyn, Selse Mursia, Per Selin, Ghaleb Rabab’ah, Mixaylina, Ivanov, David L.Ch., U.Azizov va boshqalar) aynan strategik kompetensiya doirasida olib borgan ilmiy izlanishlari tahlil qilingan. Strategik kompetensiya haqidagi ilk qarashlar olimlar Kanal va Sveynlarga tegishlidir va chet tillarni o‘zlashtirishdagi o‘rnini alohida ta’kidlab o‘tishgan⁷. Keyinchalik boshqa olimlar ham strategik kompetensiya xususiyatlarini tavsiflab, ingliz tilini o‘qitishdagi ahamiyatini yoritib berishgan.

Strategik kompetensiya – “bu yetarli darajada kompetentlikka ega emaslik yoki lingvistik bilimlarning yetishmasligi natijasida yuzaga keladigan muloqot bo‘shliqlari, qiyinchiliklari yoki muammolarni bartaraf etishda qo‘llanadigan

⁷ Canale M., M. Swain. Theoretical bases of Communicative approaches to second language teaching and testing. Applied Linguistics. 1980. – P. 1-48.

verbal yoki noverbal lingvistik vositalardan foydalanish qobiliyati”⁸ va uning asosiy mazmuni “kommunikativ strategiyalar”, “muammo”, “kutilmagan vaziyat”, “noverbal lingvistik vositalar” kabi tushunchalar orqali ifodalanadi.

Olimlar keltirib oʻtgan taʼriflarga asoslangan holda biz oʻz mualliflik yondashuvimiz asosida quyidagicha taʼrifladik: “*strategik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy elementlaridan biri boʻlib, turli xil muloqot vaziyatlarida muvaffaqiyatga va oʻzaro taʼsirga erishish uchun muloqot strategiyalaridan samarali foydalanishni anglatadi. Bu muloqot uzilishlarida muammolarni hal qilishni va qiyinchilik vaziyatlarida maʼnoni vaziyatga mos ravishda yetkazishda strategiyalardan foydalanishni oʻz ichiga oladi*”.

Birinchi bobning ikkinchi fasli strategik kompetensiyaning ogʻzaki muloqotdagi oʻrni va xususiyatlari tahliliga qaratilgan. Strategik kompetensiyaning asosini tashkil etuvchi *kommunikativ strategiyalar* muloqotni muvaffaqiyatli olib borishda yoki koʻzlangan kommunikativ maqsadga erishishda muhim oʻrin tutadi. Baʼzan talabalar tilning leksik va grammatik tarkibini oson oʻzlashtirishadi va suhbat jarayonida ulardan faol foydalanishadi, lekin baʼzi talabalar shu bilimlarni egallashiga qaramasdan fikrni bayon etishda toʻxtab qolish, qoʻrqish, toʻgʻri soʻzni tanlay olmaslik, ishonchsizlik kabi muammolarga roʻbaroʻ kelishadi. A.A.Zalevskayaning fikriga koʻra bu holat kommunikativ strategiyalarni oʻzlashtirish va qoʻllash bilan bogʻliq jarayondir⁹. “Suhbatdoshlarning muloqot davomida maʼnoni toʻliq yetkazib bermasliklari, maʼlumotni uzatish yoki qabul qilish jarayonini yakunlamaslik “aloqa buzilishlari” (communication breakdown) atamasi orqali ifodalanadi”¹⁰. Ushbu tushuncha toʻgʻridan toʻgʻri strategik kompetensiya tushunchasi bilan bogʻliq.

Kommunikativ strategiyalarning strategik kompetensiyani takomillashtirish doirasidagi oʻrnini ifoda etishda bir nechta olimlar turli tipologiyalarni taklif etgan. Bular, E.Taron, Z.Dorney, E.Bialistok, R.Palmberg, B.Nayar, T.Bongaert, N.Poulis, L.Pearson, S.Chen, G.Rababah, D.Bulut, A.M.Daboa, A.Martinez, S.Ting, G.Phan kabi olimlar boʻlib, kommunikativ strategiyalar turlarini tavsiflashga qaratilgan izlanishlar olib borishgan. Shular jumlasidan, Dorney Zoltan hamda Meri Li Skotlar kommunikativ strategiyalarni bevosita strategiyalar (direct strategies), bilvosita strategiyalar (indirect strategies), aloqa qilish strategiyalari (interactional strategies) turlarga ajratib, tipologiyasini ishlab chiqishgan va u hozirga qadar chet tilida samarali muloqot qilish mexanizmini anglab yetishda yordamchi qoʻllanma sifatida qaraladi.


Tadqiqotchi olimlarning kommunikativ strategiyalar tipologiyalarini tahlilga tortish, taqqoslash va oʻrganib chiqish negizida, mualliflik ishlanmasi asosida kommunikativ strategiyalar tipologiyasi takomillashtirildi va bunda olimlar S.Faerk va J.Kasperlar ilmiy izlanishlariga tayanildi (1-rasm). Ammo shuni taʼkidlashimiz kerakki, kommunikativ strategiyalar xususiyatlari va turlarini

⁸ Selin P. Developing strategic competence in oral interaction in English as a foreign language – A classroom study: Thes.ped.work. – Gothenburg, Sweden: University of Gothenburg, 2014. – P. 65.

⁹ Залевская А.А. Введение в психолингвистику (2-е изд.). – Москва: РГГУ, 2007. – С. 59.

¹⁰ Alizera J. Speaking English as a Second Language. Learner’s problems and coping strategies. Oman. – P. 16-17.

tavsiflashdan oldin, ularning amaliyotda qo'llanishiga doir omillar muhim vazifa sifatida qaraladi. Tadqiqotimiz natijalari shuni ko'rsatdiki, muammolilik va onglilik omillari strategik kompetensiyaning negizini tashkil etuvchi kommunikativ strategiyalarni amaliyotga tatbiq etishda muhim hisoblanadi. Chunki muammo yuzaga kelganda talaba vaziyatdan chiqish yoki jarayonda yuzaga kelgan bo'shliqni qoplashda, kommunikativ strategiyalardan foydalanishga ehtiyoj sezadi va ularning barchasi ongli fikrlar doirasida amalga oshiriladi. Olimlar (B.Nayar, H.Brown, S.Nakano, E.Kellerman) muammoli vaziyatli jarayonlardagi maqsadlilik omilini onglilik omili negizi sifatida ta'riflashgan. Ammo bizning fikrimizga ko'ra ushbu omillar alohida ta'kidlanishi joiz, chunki maqsadlilik talabani muammoni yechishga intilishi natijasida kommunikativ maqsadni amalga oshirishda yuzaga chiqadi.



1- rasm. Kommunikativ strategiyalar tipologiyasi

Yuqorida keltirilgan strategik kompetensiyaning ajralmas qismi sifatida qaraladigan kommunikativ strategiyalarni dars jarayonlariga tatbiq etish, talabalarning muloqotni samarali olib borishida ko'maklashishga aminmiz.

Ushbu bobning uchinchi fasli talabalarning strategik kompetensiyasini takomillashtirishda muammoli texnologiyaning o'rnini o'rganishga bag'ishlangan. Ta'limning muammoli texnologiyasi faol texnologiyalar turiga kiradi. Bu zamonaviy pedagogik nazariyalariga mos kelib, unda muammolilik tamoyiliga asoslangan holda amalga oshiriladi, bunda intellektual faoliyatni boshqarish va talabalarning rivojlanishiga imkon beruvchi pedagogik qiziqishlar, fikrlash, ongini

rivojlantirishni koʻzda tutadi. Muammoga asoslangan taʼlim boʻyicha berilgan taʼriflardan birining muallifi A.M.Matyushkina va uning safdoshlari L.A.Reshetnikova, M.I.Maxmutova, I.Y.Lerner fikriga koʻra mazkur jarayonning mohiyatini: “talabalarga real hayotiy muammolarni qoʻyish, ularni aniqlashtirish, izlanishlar olib borish, maʼlumotlarni yigʻish, tahlil qilish, talqin qilish, xulosalar qilish va xulosalar boʻyicha hisobot berish orqali real hayotiy muammolarni yechish asosida bilimlarni egallash uchun shart-sharoit yaratish”¹¹ tashkil etadi.

Muammodan kelib chiqqan holda, talabalar nutq faoliyatida uchraydigan noaniqlik, uzilish va fikrni davom ettira olmaslik holatlarini yengish hamda tezkor va maqsadga yoʻnaltirilgan til vositalarini tanlash koʻnikmalarini rivojlantirishda strategik kompetensiyaning ijro (execution) komponenti ahamiyatlidir. M.Kanal bu komponentni kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida tavsiflagan. Bu komponent chet tili oʻrganishda, ayniqsa B2 darajadagi talabalar uchun, tutilish va uzilishlarni yengishda muhim rol oʻynaydi. PBL texnologiyasi bu jarayonda talabani muammoli nutqiy vaziyatlarga jalb qilib, mustaqil yechim topishga yoʻnaltiradi, shu bilan birga strategik kompetensiyaning ijro komponentini rivojlantiradi. PBL modeli talabaga kommunikativ muammoni yechish uchun vositalar tanlash, strategik yondashuv ishlab chiqish va uni amaliy muloqotda tatbiq qilishni topshiradi. Masalan, talabaga nomaʼlum mavzuda suhbat boshlash topshirigʻi berilib, u strategik vositalar tanlaydi va ijro qiladi. Ushbu jarayonda talaba PBLning “Kategoriya → Maqsad → Strategik vosita” blok-sxemasiga murojaat qiladi. Unga koʻra:



2-rasm. PBLning “Kategoriya → Maqsad → Strategik vosita” blok-sxemasiga ijro (execution) komponentining integratsiyasi

Chet tillarni samarali oʻqitishda muammoli texnologiyaning olti bosqichli **SSPS (Six Steps of Problem Solving) modelidan** unumli foydalaniladi: 1. Muammoni aniqlash. 2. Sabab boʻluvchi omillarni topish. 3. Muqobil yechimlar keltirish. 4. Aniq yechimni tanlash 5. Amalga oshirish 6. Natijani baholash.

SSPS (Six Steps of Problem Solving) modeli R.J. Fogler tomonidan ishlab chiqilgan boʻlib, muammolarni hal qilishga yoʻnaltirilgan talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlash malakalarini rivojlantiradi. Ushbu model til oʻrgatish jarayonida muvaffaqiyatli tatbiq etiladi. Model olti bosqichni oʻz ichiga oladi, birinchi bosqichi “situation” komponentidir.

“Situation” komponent - bu muammoni hal qilish jarayonining boshlangʻich bosqichi boʻlib, oʻrganuvchi vaziyatni anglab, unga oid muammo yoki til toʻsigʻini

¹¹ Пилипец Л.В., Клименко Е.В., Буслова Н.С. Проблемное обучение: от Сократа до формирования компетенций. Педагогические науки, 2014. – №5.

aniqlaydi. Til o'rganishda bu bosqich kompensator strategiyalarni qo'llash zaruratini tushunish va rejalashtirish uchun muhimdir.

Bu bosqichda talaba: Nutqiy yoki kommunikativ vaziyatni anglaydi, fossilizatsiyalashgan unsurlarni aniqlashga harakat qiladi hamda kompensator strategiyalarni tanlash zaruratini sezadi.

“Situation” komponenti muammoni tahlil qilishdan oldin vaziyatni tushunishga xizmat qiladi. Bu komponent talabalarni nutqiy kamchiliklar, ayniqsa, fossilizatsiya jarayonlarini sezishga va tuzatishga tayyorlaydi. Talabalar uchun interaktiv muloqotda xato til shakllarining takrorlanishi fossilizatsiyaga olib kelishi mumkin. Masalan, noto'g'ri fe'l zamoni ishlatgan talaba *clarification request*, *self-repair* yoki *approximation* strategiyalarini qo'llashni o'rganadi.

Tadqiqotimiz doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz hamda strategik kompetensiyaning muammolilik omilini hisobga olgan holda, ushbu texnologiyani muloqot jarayoniga tatbiq etuvchi uch bosqichli formulasi taklif etildi.

1. Muammoni aniqlash: umumiylikdan izlash, ma'lumotlar yordamida yechim topish, xususiyatlar orqali aniqlash; 2. G'oyalar keltirish: fikr yuritish, fikr almashish, tushunchalarni tahlil qilish, saralash; 3. Amalga oshirish: aniq yechimni tanlash va bartaraf etish.

Tadqiqot maqsadiga mos ravishda, ko'zlangan natijaga erishishda to'g'ri tanlangan metod va texnikalar strategik kompetensiyaning takomillashtirish jarayonini izchilikda olib borishda katta yordam ko'rsatadi. Demak, bizning nuqtayi nazarimizda quyidagi metod va texnikalar mujassamligida darslarni tashkil etish talabalarning strategik kompetensiyasini takomillashtirishni ta'minlaydi: *lift pog'onasi (elevator pitch)*, *piramida (pyramid)*, *ro'li o'yinlar (simulation role plays)*, *oltita fikrlash qalpoqlari (six thinking hats)*, *baliq idishi (fishbowl)*, *loyiha (project)* va *pareto tahlili (pareto analysis)*, *affinity diagrammasi (affinity diagram)* texnikalari.

Tadqiqotimiz davomida tahlilga tortilgan zamonaviy ta'lim texnologiyasi bu **PPSI (Problem-Posing and Strategic Interaction) texnologiyasi bo'lib**, xorijiy tilni o'rganuvchi hamda ushbu tilda muloqot qiluvchi talabalarning strategik kompetensiyasini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. PPSI texnologiyasi konsepsiyasi dastlab D. Pietro tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u “Strategic Interaction: Learning Languages through Scenarios” asarida bayon qilingan. Unga ko'ra, til o'rganish faqat grammatika va lug'at emas, balki hayotiy muammolarni hal qilish jarayonida muloqot strategiyalarini qo'llashni ham o'z ichiga oladi. Ushbu texnologiya o'z ichiga ikkita asosiy metodik komponentni oladi: *Problem-posing* va *Strategic interaction*.

PPSI texnologiyasining “strategic interaction” komponenti muloqot texnikasi elementlari ya'ni axborotning shakli va vazni, muloqot maqsadi va ishtirokchilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabat mezonlari bilan integratsiya qilinib, strategik kompetensiyaning didaktik ta'minlashda qo'llaniladi.

1-jadval

“Strategic Interaction” komponentining muloqot texnikasi bilan integratsiyasi

Muloqot texnikasi elementi	“Strategic interaction”dagi ifodasi	Strategik kompetensiyani shakllantirishdagi vazifasi
Axborot (mazmun va shakl)	Til vositalarini tanlash (direct vs. indirect, simple vs. elaborated speech)	Axborotni aniq va maqsadga yo‘naltirilgan tarzda yetkazish; noto‘g‘ri yoki kam ma’lumotni strategik to‘ldirish
Maqsad (nutq niyati)	Intention management (request, refusal, agreement, justification)	Nutq maqsadini vaziyatga mos tarzda bildirish: tahmin, rad etish, savol berish, izoh berish va h.k.
Ishtirokchilar (ijtimoiy roli)	Role-sensitive language use (formal vs. informal, power dynamics)	Ishtirokchilarning maqomiga qarab kommunikativ uslubni tanlash: respectful, assertive, collaborative nutq shakllari

Quyida ingliz tilini o‘qitishda talabalarning strategik kompetensiyasini takomillashtirishda ta’lim bosqichlari-muammoli texnologiya, jarayon modeli, metod va texnikalari hamda o‘qitishda pedagog va talaba faoliyati natijasi orqali ifodalangan (2-jadval).

2-jadval

Muammoli texnologiya asosida ta’limni tashkillashtirish bosqichlari (PTPLUR)

Pedagog tomonidan muammoga qaratilgan vaziyatlar yaratish va talabalarning faol ishtirokini ta’minlash			
Bosqichlar	Ta’rif	Metod va faol pedagogik texnikalar	
I. Bosqich. O‘qitishdan oldingi bosqich (pre-teaching stage)	Tayyorlovchi jarayon	Yangi ma’lumot olish, yangi so‘zlar bilan tanishtirish, darsga tayyorlanish	
	Jarayon	Brainstorming	Lift-pog‘onasi
II. Bosqich. Samarali tildan foydalanish (Productive language use stage)	Muammoli texnologiyaning PPSI modelini qo‘llash: (problem posing, strategic interaction)	Jarayonda talabalarning faol ishtirokini ta’minlash orqali topshiriq va vazifalarga jalb etish	
		Affinity diagrammasi, Pareto tahlili	Ro‘lli o‘yinlar, piramida, oltita fikrlash qalpoqlari
III. Bosqich Natija (Result)	Natija taqdim etish	Natija orqali talabalarning ijodiy yondashuviga e’tibor qaratish	
		Loyiha metodi. Barcha metodlar natijasi	

Dissertatsiyaning “**B2 darajadagi talabalarning strategik kompetensiyasini takomillashtirishning zamonaviy holati**” deb nomlangan ikkinchi bobining birinchi faslida OTM talabalariga mo‘ljallangan ingliz tilidagi o‘quv dasturlari va darsliklarida strategik kompetensiyani muammoli texnologiya asosida takomillashtirishga yo‘naltirilganlik darajasi hamda talabalar strategik kompetentligini baholash mezonlari talablari tahlil qilindi.

Tadqiqotimiz doirasida milliy (DTS) va xalqaro (CEFR) standartlar, malaka talablari va tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan ikkinchi bosqich talabalarining “Nutq ko‘nikmalari integratsiyasi” fanining o‘quv dasturlari, darsliklarini tahlilga tortdik.

Hozirgi paytda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 356-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan Oliy va o‘rta maxsus, professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil 17-avgustdagi 3-sonli yig‘ilishida ma’qullangan va butkul boshqacha shaklda kiritilgan bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari amalda qo‘llaniladi va shu asosda o‘quv qo‘llanmalar, ishchi dasturlar tuziladi. Ushbu rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat ta’limda talabalar egallashi nazarda tutilgan umumiy kompetensiyalar va kasbiy kompetensiyalar xususiyatlari bilan keltirilgan. Demak, ushbu talablar asosida tayyorlanadigan o‘quv dasturlar shu kabi jihatlarni o‘zida aks ettirishi lozim. Chet tillarini samarali o‘qitishda ta’lim jarayoni to‘g‘ridan-to‘g‘ri CEFR talablariga borib taqaladi. Ushbu standartda ko‘rsatilgan kommunikativ strategiyalar tadqiqotchi Baxman tomonidan tavsiflangan strategik kompetensiyaning to‘rtta komponentlari –rejalashtirish, ijro etish, amalga oshirish va maqsadga erishish kabi komponentlar bilan mos keladi.

3-jadval

Strategik kompetensiya komponentlarining DTS va CEFR standartlarida yoritilishining qiyosiy tahlili

Strategik kompetensiya	DTS talablari	CEFR standartlari
Reflektiv fikrlash	Bevosita mavjud emas	Self-monitoring ya’ni o‘zini nazorat qilish strategiyasi orqali yoritilgan
Moslashuvchanlik ko‘nikmasi (fikrlash)	Umumiy fikrlash darajasida keltirilgan	Flexibility (moslashuvchanlik) berilgan
Muammoni yechish strategiyalari	Bevosita keltirilmagan (pragmatik kompetensiya negizida)	Problem-solving skills batafsil yoritilgan
Muloqotda faol ishtirok etish	Individual yondashuv orqali emas, balki guruh shaklida berilgan	Turn-taking, negotiation skills orqali berilgan

Aynan B2 darajadagi talabalar ushbu komponentlar doirasida murakkab yoki muammoli vaziyatda reja qilish qobiliyati, qanday strategiyani qo'llash, rejalashtirilgan fikr yoki mulohazaning tinglovchiga ta'siri haqida tushunchaga ega bo'lishi (*rejalashtirish*), lug'at yoki til bilimlari yetishmasligida kommunikativ strategiyalardan foydalanish (*amalga oshirish*), muammoli yoki tushunmovchilik vaziyatga olib keladigan xatolarni vaqtida anglab yetish va tuzatish qobiliyatiga (*kuzatish va tuzatish*) ega bo'lishi bilan belgilangan. Bu esa o'z navbatida strategik kompetensiyaning muhim ahamiyatini kasb etadi.

Tadqiqotimiz davomida ta'lim yo'nalishi: 60111800 –Xorijiy til va adabiyoti talabalari uchun “Nutq ko'nikmalari integratsiyasi” fanini tahlil qilindi (modul kodi NK106, 27/08/2023). Nutq ko'nikmalari integratsiyasi faniga jami auditoriya mashg'ulotlari 168 soatni, mustaqil ta'lim esa 252 soatni tashkil etadi. Ushbu fan dasturida asosiy adabiyotlar qatoriga kiritilgan “Skillful” hamda “Skills for success” tahlilga tortilgan. Adabiyotlar tahlilida bir nechta kamchiliklar kuzatilgan bo'lib, ular quyidagilardir: tavsiya etilgan mavzular mantiqiy ketma-ketlikda va bog'liqlikda emas; asosiy e'tibor talabalarning umumiy tinglash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Vaholanki, zamonaviy ta'lim sohasida real vaziyatlarda muloqot qila olish qobiliyatlari, muammoli vaziyatlardan chiqish muhim hisoblanadi. Strategik kompetensiya aynan, shu jihatlarni kommunikativ strategiyalar orqali rivojlantirishni ko'zda tutganligi sababli, uni o'quv jarayoniga mashqlar uyg'unligida tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

Keyingi faslda talabalarning ingliz tilidagi bilim va ko'nikmalarni egallash jarayonida qiyinchiliklarni yuzaga keltiruvchi interferensiya hodisasi tavsifi berilgan. Olim O.Yusupovga ko'ra, “Tillararo interferensiya bu ona tilining ta'sirida chet til me'yorlarining buzilishi yoki nutqda savodsizlik va to'siqlarning paydo bo'lishidir”. Kompetentlik doirasida, strategik bilimlarni egallashda interferensiya hodisalarini Dagmara Galajda, Muluken Gebra Lanka, A.V.Pavlova ilmiy ishlarida bu jarayonni tillar aralashuvi doirasida yoritib berishga urinishgan. Tadqiqotchi olimlar P.Robinson hamda P.D.Makintir o'z tadqiqotlarida talabalarning strategik kompetentlik doirasidagi qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan jarayonlarni tavsiflab beradi. Demak, muammoning negizi *lingvistik* (til, lug'at bilimlarining yetishmasligi), *kognitiv*¹² (ongli, tanqidiy, ijodiy fikrlay olmaslik), *affektiv*¹³ (atrof-muhit va hissiy-faoliyat), *vaziyat* (aniq vaziyatga xos bo'lgan voqea-hodisalar) kabi omillar bilan chambarchas bog'liqligiga asoslangan. Tadqiqot jarayonida talabalarning strategik kompetensiya doirasida yuzaga keladigan muloqot qiyinchiliklarini aniqlashda ushbu to'rtta omillarga asoslangan holda kognitiv interferensiya, lingvistik interferensiya, madaniy interferensiya turlarini aniqlandi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi, uchinchi faslida B2 darajadagi talabalarning strategik kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan mashqlar tizimini ishlab

¹² Robinson P. Task complexity, cognitive resources, and syllabus design: A triadic framework for examining task influences on SLA. P.Robinson (Ed.), *Cognition and Second Language Instruction*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – P. 287-318.

¹³ MacIntyre P.D., Gregersen T. Affect: The role of language anxiety and other emotions in language learning. S. Mercer, S.Ryan, M.Williams (Eds.), *Psychology for Language Learning*. – London: Palgrave Macmillan, 2012. – P. 103-118.

chiqish masalalari yoritilgan. Biz o‘z mashqlar tizimimizni mashhur olimlar L.Bim, A.V.Ivanov, L.T.Axmedova, Y.A.Lagaylar tomonidan ishlab chiqilgan mashqlar tipologiyasi asosida, takomillashtirilgan holda taqdim etdik va uni talabalarning tanqidiy, ijodiy va kognitiv fikrlash ko‘nikmalarini, kommunikativ strategiyalardan foydalanish, muammo yoki qiyinchiliklarni mustaqil tarzda bartaraf etish kabi bilimlarni oshirishda fundamental ahamiyatga ega deb hisoblaymiz:

Tayyorlovchi-retseptiv mashqlar – ushbu turdagi mashqlar umumiy tushuncha, ma’lumotlarga ega bo‘lish, mavzuga oid bilimlarni egallashga qaratilgan;


Mazmuniy-imitatsion mashqlar – egallangan bilimlarni amaliyotga qo‘llash, taqlid qilish, real hayotga tatbiq etishga qaratilgan;

Natijaviy-nazorat mashqlar – egallangan bilimlarni, ma’lumotlarni to‘g‘ri qo‘llay olishni natijaga asoslangan holda nazorat qilib borishga qaratilgan.

Yuqorida keltirilgan mashqlar tizimi muammoli texnologiya asosida ta’limning uchta asosiy bosqichi orqali tashkillashtirildi.

Talabalarning strategik kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan ilk bosqich – *o‘qitishdan oldingi bosqich* – kommunikativ strategiya turlari bilan ishlashni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchi tomonidan kommunikativ strategiyalarning eng faol va muammoga qaratilganlari tanlab olinadi va *tayyorlovchi-retseptiv* mashqlarda o‘z ifodasini topadi. Masalan, umumiyashtirish (generalization- use of all purpose strategy), parafraza qilish (paraphrasing), (circumlocution), so‘z tangalari (word-coinage), suhbat sherigidan yordam so‘rash (asking for a help form the interlocutor) kabi strategiyalar quyidagi vazifalar bo‘yicha amalga oshiriladi: 1) *Find a name or expression that name all others and put it in a logical order with others;* 2) *Match the words in table A with the definitions in table B and express your attitudes to your partner;* 3) *Say what functions the following items can be used for, list as many verbs as you can and compare the list with your partner;* 4) *Make a request for an item, explain the reason for its absence from you, justify the need for this item right now. Respond to the request positively or refuse to fulfill it, justifying the reason. Thank him for the provided item. Express your disappointment in case of rejection.*

